

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA EVIDENTSIAL KLISHELAR

Xamraeva Maxzuna G'ayratovna

PhD, Qarshi davlat universiteti, o'qituvchi
e-mail: makhzuna.khamraeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada evidensiallik kategoriyasi va uning turlari haqida olimlarning turlicha qarashlari yoritib berilgan. Shuningdek, unda o'zbek tilida hali tadqiq etilmagan, ammo chet el, xususan Yevropa olimlarining diqqat markazida bo'lgan yangi lingvistik hodisa – klische va uning turlari, ushbu hodisaning qachon, qay tarzda va qaysi so'z turkumi orqali namoyon bo'lishi haqida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, fe'lning o'ziga xos ma'no anglatuvchi semalari aniqlangan hamda turli ma'noviy munosabatga kirisha oladigan evidentsial klishelar o'zbek va ingliz tillaridagi badiiy adabiyotlar misolida yoritib berilgan. Evidentsiallik hodisasi grammatick jihatdan ayrim tillarda rivojlangan bo'lib, unda leksik birliklar va diskursiv hodisalar muhim o'rinn tutadi, modallik ifodasi va grammatick belgilar esa yordamchi ko'rsatkich sifatida amal qiladi.

Tayanch so'zlar: sezgi fe'llari, sema, evidentsiallik, oddiy klishelar, maxsus klishelar, morfema, affiks, defiz, apostrof, sufiks.

ЭВИДЕНЦИАЛЬНЫЕ КЛИШЕ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Хамраева Махзунна Гайратовна,

PhD, Каршинский государственный университет, преподователь
e-mail: makhzuna.khamraeva@gmail.com

Аннотация. В статье освещаются различные взгляды ученых в отношении категории эвиденциальности и ее видов. Также в ней описывается новое языковое явление, еще не изученное в узбекском языке, но находящееся в центре внимания зарубежных, особенно европейских, ученых – клише и его виды, предоставлена информация о том, когда, как и через какую лексику проявляется данное явление. Кроме того, выявлено специфическое значение глагола и выделены доказательные клише, которые могут иметь разное значение на примере художественной литературы на узбекском и английском языках. Явление эвиденциальности грамматически развито в некоторых языках, в которых важное место занимают лексические единицы и дискурсивные явления, а вспомогательными показателями выступают выражения модальности и грамматические идентификаторы.

Ключевые слова: глаголы восприятия, сема, эвиденциальность, простые клише, специальные клише, просодия, морфема, аффикс, дефикс, апостроф, суффикс.

EVIDENTIAL CLITICS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Khamrayeva Makhzuna Gayratovna

PhD, Karshi state university, independent researcher

e-mail: makhzuna.khamraeva@gmail.com

Abstract. The article highlights data about views of scientists on the category of evidentiality and its types. Furthermore, the article gives information about cliché and its types, which has not been investigated in the Uzbek language yet but already drew attention of the European scientists as a new linguistic phenomenon, and some information about when, in what way and with which word group this phenomenon is manifested also provided. Moreover, the specific meaning of the verb has been identified and the evidential cliché that carries different meanings have been highlighted on the example of belle-lettres in the Uzbek and English languages. The phenomenon of evidentiality is grammatically developed in some languages, in which lexical units and discursive phenomena occupy a vital role, while the expression of modality and grammatical signs act as auxiliary indicators.

Key words: verbs of perception, seme, evidentiality, simple clitics, special clitics, prosody, morpheme, affix, hyphen, apostrophe, suffix.

Evidentsiallik lingvistik kategoriya bo‘lib, so‘zlovchi uning yordamida biror voqeani tavsiflashda bevosita ishtirokchi vazifasini bajaradi. Biror shaxsning ma’lum faktga doir o‘zining yohud o‘zganing fikrini boshqa (ikkinchi, uchinchi) odamga bildirishi evidentsiallikning muhim jihatni sanaladi [Kratschmer 2010; 331]. Evidentsiallik tashqi dunyodan olingan subyekt haqida ongda paydo bo‘lgan ma’lumot manbasi bo‘lganligi bois, kognitiv ahamiyatga ega hisoblanadi [Heijnen 2010; 38]. Evidentsiallik ma’lum umumiyligi nazariy atamalarning semantik funktsiyasi bo‘lishi bilan bir qatorda ana o‘sha atamalarning tildagi leksik va grammatik ijrosini ta’minlovchi keng tarqalgan kognitiv hodisadir [Langaker 2015; 79].

Grammatik evidentsiallik ayrim tillarda rivojlangan bo‘lib, unda leksik birliklar va diskursiv hodisalar muhim o‘rin tutadi, modallik ifodasi va grammatik belgilar esa yordamchi ko‘rsatkich sifatida amal qiladi. Mazkur tillarda evidentsiallik birlamchi neytral kategoriya sifatida nutqda gap yoki matn darajasida muhim o‘rin tutadi. Evidentsiallik, shuningdek zamon va aspektga asoslangan hodisalarning muhim tarkibiy qismi ham sanalanadi. U grammatik belgilarning tizimli tarkibga bo‘ysunadigan umumiyligi ma’nosini asosini anglatadi. Bundan tashqari, evidentsiallikning ahamiyati faqatgina ma’lum bir obyektning axborot manbasini aniqlash emas, balki

unda keltirilgan dalillarning sifat jihatdan haqiqatning aniq kontseptsiyasi sifatida epistemik dalilga hissa qo'shishi nazarda tutiladi [Johanson 2000; 21].

Evidensiallik tushunchasiga Aleksandra Ayhenvald tukano va ingliz tillarini qiyoslagan holda quyidagi konstruksiyani misol qilib keltiradi, biz esa uning o'zbek tilidagi muqobilini berishga harakat qildik:

- a) *Diayi wa'i-re yaha-ami - The dog stole the fish – Anavi it o'sha baliqni o'g'irladi (buni men o'zim ko'rdir/guvohlik berish)*
- b) *Diayi wa'i-re yaha-asi - The dog stole the fish – Anavi it o'sha baliqni o'g'irladi (men tovushini eshitdim)*
- c) *Diayi wa'i-re yaha-api - The dog stole the fish - Menimcha anavi it o'sha baliqni o'g'irladi (avval ham bo'lgan)*
- d) *Diayi wa'i-re yaha-api - The dog stole the fish – anavi it o'sha baliqni o'g'irladi deb aytishdi (lekin o'zim ko'rghanim yo'q)* [Aikhenwald 2004; 18].

Tilshunoslikda evidentsial hodisalar bevosita hamda bilvosita tarzda yuzaga keladi. Zero, mazkur tahlilda *ko'rish* (*see*), *eshitish* (*hear*), *his qilish* (*feel*), *xid bilish* (*smell*) va *ta'm bilish* (*taste*) ishtirok etishi kuzatiladi.

Hozirgi kunda tilshunoslikda evidentsial klishe mavzusi ko'pchilik Yevropa olimlarining o'rganish manbasiga aylangan. Biroq, milliy tilshunoslismizda mazkur mavzu hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Bugunga kunga qadar klishe atamasi nemis, shrau, haditsa hamda velsh tillarida maxsus klischelar (ya'ni yordamchi so'zlar) sifatida o'rganilgan. Ushbu yordamchi so'zlar guruhiga mustaqil so'zlar, qo'shimchalar va boshqalarni kiritishgan. Klishe atamasi Sandra Chung, Devid Dovti, Maykl Geys, Judit Klavans, Jofrey Pullum hamda Devid Stamp kabi tilshunoslari tomonidan o'rganilgan [Zwicky 1985; 283].

Klishe so'zi fransuzcha *cliché* so'zidan olingan bo'lib, suratdagi illustratsion relyefli shakl, bezak, illutsratsiya, forma ma'nolarini anglatadi [Лёхина 1954; 328]. Klishe bu tasvir shtrixli kombinatsiya elementlari, bezak matn reproduksiyasi va matn illustratsiyasi, bezagi. Demak, klischelar so'zga bezak berish xizmat qiladi.

Nutqiy klishe esa so'zlardan foydalanishning standart namunalari, iboralar va sintaktik qurilmalarning tipik qoliplari, shuningdek muayyan vaziyatlardagi nutqiy xatti-harakatlarning umumiyligi modellaridan iborat. Odatda kundalik muloqotda "klishe" deganda nutqiy qoliplar nazarda tutiladi. Hozirgi zamon tilshunoslida qoida tariqasida nutqiy klischelar oliy qolipli birikmalarni ifodalaydi va ko'pincha klischelarning ma'nosini ularni tashkil etuvchi so'zlarning asl ma'nosidan farq qiladi. Tilshunoslarning fikriga ko'ra, nutqiy klischelar bizga ma'lumot almashinuv jarayonini tezlashtirishda qo'l keladi, zarur so'zlarni toppish va ularni oson tushunish uchun kamroq kuch sarflash imkonini beradi.

Klishe bu – erkin yoki bog‘langan morfema bo‘lib, u so‘zning sintaktik xarakteristikasi hisoblanadi, ammo fonologik jihatdan ko‘pincha bir xil, ba’zan ayro holda talaffuz qilinishi ham mumkin. Klishelar xuddi affikslar kabi bir xil talaffuz qilinishi mumkin bo‘lgan so‘zlar bo‘lib, ular fraza darajasida sintaktik rol o‘ynaydi. Boshqacha qilib aytganda klishelar affikslar shakliga ega bo‘libgina qolmasdan funksional so‘zlarning tarqalishida ham faol ishtirok etishi mumkin. Chunonchi, *he’s* (*he is*) va *he’s* (*he has*) yoki *it’s* (*it has*) yoki *it’s* (*it is*). Shuningdek, *heel* hamda *he’ll* so‘zlarini ham evidentsial klitikaga misol qilib keltirishimiz mumkin [Runic 2014; 16].

Britaniya ingliz tilida *clichè* (klischee)ko‘p marotaba ishlatilgan ibora yoki g‘oya bo‘lgani sabali, tinglovchida qiziqish uyg‘otmaydi, chunki uning diqqatini o‘zining sermazmunligi, samarasi bilan jalg qila olmaydi
[<https://www.collinsdictionary.com/dictionary/german-english/klischee>].

Amerikalik olima J.Klavans evidentsial klishelarni ikki turga bo‘lib o‘rganishni taklif qiladi: 1) oddiy; 2) maxsus. *Oddiy klishelar* – bu erkin morfemalar bo‘lib, ular ibora yoki gapda yakka holda kelishi mumkin. Klitikalar gapda asosiy vazifani bajarmaganligi sababli, ular fonologik jihatdan yaqin bo‘lgan so‘z bilan birgalikda qo‘llanadi. Bunda ular hamisha mezbon yoki o‘zak so‘zdan ma’no oladi. *Maxsus klishelar* esa so‘z bilan bog‘langan morfemalar hisoblanadi, odatda ular o‘zakka birlashib ketgan bo‘ladi va o‘z uy egalarining bir qismi sifatida faol qo‘llaniladi. Ushbu shakl yasovchi morfema hech qachon diqqat markazida bo‘lmaydi, faqat urg‘u orqali talaffuz qilinadi. Shuning uchun, bir xil ma’no hamda o‘xhash fonologik tuzilishga ega bo‘lgan maxsus klitikalar kontekstda mezbon so‘z bilan bejirim holda bog‘lanadi [J.Clavans 1995; 9]. Olima evidentsial klishelarni grammatikalashning ayrimlarini tarixiy jarayonidan o‘tgan elementlar deya ta’riflaydi. Bular, *leksik element* → *kliše* → *affiks*

J. Klavansning ushbu moduliga ko‘ra, ma’lum bir kontekstdagi avtonom leksik element vaqt o‘tishi bilan mustaqil so‘zning to‘liq xususiyatlarini yo‘qotadi va morfologik qo‘srimchaning xususiyatlari bo‘lmish prefiks, qo‘srimcha, infiks va sufiks kabilarni egallaydi. Olimaning fikriga ingliz tilida quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: *in-nocent*, *ir-respons-ible*, *dis-orient-ed*, *un-luck-y*, *luck-ily*, *un-happy*, *in-convenient*. O‘zbek tilida esa *be-gunoh*, *baxt-siz*, *no-qulay*, *ser-daromad*, *omad-li* va boshqalarini keltirish mumkin. Har ikkala tildagi sifat yasovchi suffikslar evidensial kliše sifatida xizmat qiladi.

A. Zwicki klisheriga quyidagicha ta’rif bergan: “Qo‘shma so‘zlar kutilmagan bog‘lamali morfemalar bo‘lib, gapda turlicha o‘zaklar bilan bog‘lanib kelishi mumkin. Oddiy klishelar fonologik jihatdan erkin qisqargan morfemalar bo‘lib, ular ingliz tilida maxsus sintaktik qurilishni ifodalamaydi. Jumladan: *I can’t stand’im*. Mazkur jumlada

kauzal nutqdagi fonologik qisqarishni ko‘rishimiz mumkin. Chunki, keltirilgan jumlaning kengayririlgan muqobili *I cannot stand him* ekanligini bilamiz. Biroq fransuz tili nutqida morfologik jihatdan qisqartirib bo‘lmaydigan klischelar mavjud. Bular *le hamda lui*” [Zwicky 1985; 288].

Stenford universiteti olimlari klischelar o‘z mezbonlariga eng quyi darajali munosabatni affikslar esa o‘z o‘zaklariga eng yuqori darajali munosabatni namoyon qiladilar deya ularni 4 guruhga ajratadilar:

1. Klischelar o‘z mezbonlarini tanlamaydilar. Chunki ular kerakli paytda har qanday so‘zga ta’b tortmay hujum qilib ma’lum so‘z turkumiga semantik yoki umumiyl holda bog‘lanadi; Mazkur izohga o‘zbek tilida *be-ozor, ba-ma’ni* so‘zlarini misol qilib keltirish mumkin, bunda be- va ba- klischelari o‘zak so‘zni yasamoqda.
2. Klischelar asossiz gaplarni namoyon qilmaydilar. Affikslar leksikalashgan bo‘ladi lekin ko‘plik yashashda -s suffiksini doim olavermaydi. Masalan, *child* so‘zining ko‘pligi *children* bo‘ladi. O‘zbek tilida bola so‘zining ko‘plik variant *bola-lar* bo‘ladi, bunda -lar ko‘plikni yasovchi klishe hisoblanadi.
3. Klischelar morfologik idiosinkraziyani namoyon qilmaydi, Chunki, ular tilning qolgan qismida morfologik qoidalarga bo‘ysunadi; O‘zbek tilida esa *muallim-a* bunda a suffaksi ayol jinsiga xos bo‘lgan klisheni namoyon etmoqda.
4. Klischelar material mavjud bo‘lgan affiksli klitikalardan tashkil topgan bo‘ladi. Affikslar boshqa affikslarga hujum qilishi mumkin, ammo material klitikalarga hujum qilmaydi [Zwicky/Pullum 1985; 287].

Ahamiyatli tomoni shundaki, klischelarni barcha so‘z turkumlari tarkibida, jumladan, otlar tarkibida uchratish mumkin. Bu esa tilshunoslikda distributive klishe deb yuritiladi. Misol uchun: ingliz tilida *friend-ship, neighbour-hood, teach-er, guitar-ist, tree-s* va h.k., o‘zbek tilida esa *tinch-lik, o‘qit-uvchi, gul-chi, daraxt-lar, qo‘sni-chilik, etik-do‘z* va h.k. Bundan tashqari, klischelarni hatto sezgi fe’llari tarkibida ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, *All news we hear’s fake. The radio we listen’s on the fireplace* yoki *All the news we hear is fake. The radio we listen is on the fireplace*. Shuningdek, klitikalar yordamchi so‘zlar yoki modal fe’llar bilan birga qo‘llanilishi mumkin: *Speak louder, I can’t hear you! I won’t see you anymore! She couldn’t feel it. You shouldn’t smell the coffee. I mustn’t taste it. You needn’t listen to her*. Mazkur gaplardagi barcha sezgi fe’llar guvohiy evidensiallikka ishora qilmoqda.

Ingliz olimlari sezgi fe’llari tarkibida uchraydigan suffiks va affikslarni klitikalar guruhiга kirgizadilar. Misol uchun: *hear/s – hear/ing – hear/d, smell/s – smell/ing – smell/ed, taste/s-taste/d-tast/ing, look/s – look/ing – look/ed*. O‘zbek tilida esa *hid-la-sh, hid-lamoq, hid-la-yotir, hid-ladi, hid-lar* kabi turli zamon formalarini uchratishimiz mumkin.

Ayrim hollarda yordamchi so‘z turkumlarining gapda tushirilib qoldirilishi ham klishe deb ataladi. Bu esa tilshunoslikda X va Y kombinatsiyasi deb nomlanadi. Misol uchun, *You seen Jerry?* Bunda ko‘makchi so‘z have tushib qolgan. Ammo, u asosiy mazmunni buzib yubormaydi [Zwick 1985; 290].

O‘zbek tilida ham klishe lar mavjud bo‘lib, ular otlarga ot yasovchi qo‘shimchalar *-lik*, *-chi*, *-kor*, *-don*, *-paz* va hokazolarni keltirish mumkin. Masalan, *tinchlik*, *mardikor*, *do‘tslik*, *oshpaz*, *tuzdon*, *mardikor*. Ammo ingliz tilidan farqli ravishda o‘zbek tilida ko‘makchi fe’lni yoki fe’lni o‘zini tushirib qoldirganimizda asosiy ma’noga ta’sir qilishi kuzatiladi. *Yedingmi?* Yoki *Ko‘rdingmi?* Deb so‘raganimizda kimni yoki nimani degan so‘roq paydo bo‘lishi mumkin. Yoki borib kelmoqni bormoq va kelmoq kabilarga ajratganimizda gapning kontekstiga katta ta’sir qilishi shubhasiz. Shuning uchun, klishega *boroldim* ya’ni *bora oldim* yohud ko‘roldim ya’ni ko‘ra oldim so‘zini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Aksariyat klishe larning o‘xhash xususiyati bu prosodik mustaqillikning yetishmasligidadir. Bunda klishe o‘zining yonidagi qo‘shimchaga birikib, hokim so‘zga aylanadi. Orfografik konvensiyalarda klishe lar turli xil yo‘llar bilan o‘rganiladi: ularning ayrimlari alohida so‘z sifatida ifodalansa, boshqalari esa o‘zining mezbonlari orasida yoziladi, ba’zilari mezbonlariga hujum qilib ularni yengadi, ammo punktuatsiya belgisi bo‘lmish defis hamda apostrof orqali belgilanadi [J.Clavans 1995; 21]. Chunonchi: *we’re*, *he’s*, *ain’t*, *don’t*, *didn’t*. Mazkur holat o‘zbek tilida kuzatilmaydi.

O‘zbek tilida *-ib*, *gach*, *-kach*, *-qach*, *-di*, *-ti*, *-gan*, *-kan*, *-qan* kabi fe’lning zamon shakllarini yasovchi suffikslarni evidentsial klitiklar turumiga kiritish mumkin. *Klishe larni o‘zbek tili badiiy matn tarkibida ham uchratish mumkin:*

Hikoyani eshitish asnosи imomda bir g‘ijinish vaziyati bor edi (A.Qodiriy. *Mehrobdan chayon*, 79) Bunda *-ish* suffiksi harakat nomili klishe ni ko‘rsatib kelmoqda.

O‘z umrimda ko‘p odamlarni ko‘rganman, *ko‘plarning sarguzashtlarini eshitganman* (S.Ahmad, *Yulduz*, 29). Mazkur gapda *-gan* klishesi o‘tgan zamonni ifodalagan holda guvohiy guvohiy evidensiallikni namoyon qilmoqda.

Kattakon derazaning chap tomonidagi karavotdan zaif, *yo‘q emas ovoz eshitildi* (A.Qahhor, *Ming bir jon*, 49). *Keltirilgan misoldagi -ildi* klishesi majhul nisbatni ifodalagan holda o‘tgan zamonga ishora qilmoqda.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, klishe termini har ikkala tilda har qanday element bo‘lishidan qat’i nazar, uning izohida tipik so‘z va tipik affiks kabi grammatik status oralig‘idagi lingvistik termin bo‘lib, ular tilshunoslikning morfemika va morfologiya bo‘limlarida chuqurroq o‘rganiladi.

Xulosa sifatida shuni ham e'tirof etish mumkinki, yuqorida biz klishe larga asosiy izoh berish orqali ma'lum kriteriyani postleksik klishe va morfologik affiksga ajratib olib sezgi fe'llari tarkibida kelganining hamda ularning har ikkisi prosodik avtonomianing etishmasligi bilan xarakterlanganining guvohi bo'ldik. Bunda ikkita kategoriya o'rtasida aniq bir bog'liqlik mavjud emas, garchi ularni morfologizatsiya orqali ajratib olish mumkin edi. Bir tomondan evidentsiallikda asl klitikalarning kuzatuvchi xususiyatlari klasterlar orqali aniqlangan bo'lsa, boshqa tomondan affikslarning mohiyatli misollari empirik asosga doir bo'lgan affiks kategoriyasini namoyon qildi. Tilshunoslikdagi evidentsiallik kategoriysi qiyosiy aspektida hali etaricha o'rganilmagan, evidentsial klitikalar esa to'liq yoritilmagan bo'lib, ushbu masalalar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adrienne Heijnen. 2010. Relative Evidentiality in European Languages: Linguistic coding and its anthropological background, p 38
2. Anderson B. Lloyd . 1986. Evidentials, paths of change, and mental maps, 273
3. A. Kratschmer. 2010. The Linguistic Realization of Evidentiality in European Languages. Berlin: Mouton de Gruyter pp 331-368
4. Arnold M Zwicky .1985. Clitics and particles. Ohio State university. Language volume 61, number 2, p 283.
5. Jelena Runic.2014. A New Look at Clitics, Clitic Doubling and Argument Ellipsis: Evidence from Slavic. Doctoral dissertation.University of Connecticut Graduate School 160
6. Judith L Clavans.1995.On Clitics and Cliticalization. The Interaction of Morphology, Phonology and Syntax, p 210
7. Langacker 2002; bet Langacker Ronald W. Cognitive Grammar. –Oxford: Oxford University Press. 2008. -571p.
8. Johanson L 2000; Evidentiality in Turkic, 21
9. Лёхина И.В., Петрова Ф.Н. Словарь Иностранных Слов. – Москва 1954. – С 328